

erishishning ustuvor yoʻnalishlari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalangan holda zamonaviy naqd pulsiz hisob-kitoblar mexanizmlarini joriy etish boʻyicha olib borilayotgan ishlar banklarimiz tomonidan mijozlarga koʻrsatilayotgan xizmatlar sifati, toʻlov intizomi va madaniyatini yangi bosqichga koʻtarilishini taʼminlash bilan birga, barcha iqtisodiy tarmoqlar taraqqiyotini mustahkamlashga ham oʻzining ijobiy taʼsirini koʻrsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli “2020-2025-yillarga moʻljallangan Oʻzbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi toʻgʻrisida”gi farmoni// QHMMB: 06/205992/0581-son. 13.05.2020 y.
2. Nizamov U.N. Tijorat banklarining mamlakat iqtisodiy oʻsishida taʼsirini oʻshirish yoʻllari / Fundamental tadqiqotlar jurnali №2-2024 <https://doi.org/10.5281/zenodo.10622923>
3. Xudoyqulov S.K, Buranova L.V Hududlarning moliyaviy salohiyatiga taʼsir etuvchi omillarning tasnifi va ahamiyatligi / Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnal 2021.
4. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bank statistik koʻrsatkichlari www.cbu.uz

MOLIYAVIY SAVODXONLIKNING AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI YAXSHILASHDAGI ROLI

Iskandarova Dilafroz

TDIU tayanch doktranti,

“Mehnat iqtisodiyoti” kafedrasi assistenti


Bugungi kunda moliyaviy savodxonlik rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda yanada shaffof, sogʻlom va barqaror iqtisodiyotga intilishda muhim ahamiyatga ega boʻlgan masaladir.

Moliyaviy savodxonlik – shaxsiy moliyaviy boshqaruv, byudjetlashtirish va investitsiyalarni oʻz ichiga olgan turli xil moliyaviy koʻnikmalarni tushunish va samarali ishlatish qobiliyatidir.

Istalgan moliyaviy maqsadlarga erishish uchun aholining daromad topish, sarflash, tejash, qarz va investitsiyalar boʻyicha savodxonlik darajasi yuqori boʻlishi muhim hisoblanadi.

Insonlarning moliyaviy savodxonlik darajasi past boʻlishi natijasida tadbirkorlikda omadsizlikka uchrashi, oʻz moliyaviy resurslarini toʻgʻri joylashtira olmasligi mumkin. Mavjud moliyaviy bozor instrumentlaridan maqsadli foydalana olmasligi oqibatida esa kambagʻallik yoki oʻrta hol turmush darajasidan yuqori pogʻonalarga chiqishi murakkablashadi. Aholining moliyaviy savodxonligi nafaqat shaxsiy farovonlikka balki mamlakat iqtisodiyotiga ham taʼsir etishini koʻrishimiz mumkin. Masalan, fuqarolarning oʻz daromadlari va xarajatlarini aniq tasavvur qilmasligi yoki notoʻgʻri rejalashtirishi oqibatida kreditorlik qarzdorlik paydo boʻladi, moliyaviy firibgarliklar sonining oshishiga

olib keladi. Global miqyosda bu mamlakat iqtisodiyotini moliyaviy inqirozga olib kelishi mumkin (1-rasm).



1-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YaIMdagi ulushi⁴

Ushbu grafik ma'lumtlariga ko'ra, kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YaIMdagi ulushi 2010-2023-yillarda 60.8 foizdan 51.2 foizga tushgan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YaIMdagi eng ko'p ulushi 2015-yilda 66.8 foizni tashkil etgan.

Insonlarda moliyaviy savodxonlikning yuqori darajada bo'lishi to'g'ri investitsiya qilishi, doimiy daromad manbaini shakllantirishda hamda keksalikda o'zining moddiy ehtiyojlarini qoplashi uchun aql bilan tadbirli ish tutushini ta'minlaydi.

Aholi moliyaviy savodxonligining ijtimoiy ahamiyati ham bor. Bugungi kunda tadbirkorlik aholi daromadlarini oshirish va turmush farovonligini yaxshilashning asosiy dastagi bo'lib qolmoqda. Chunki, shaxsning moliya borasidagi bilim va ko'nikmalari natijasida aholi turmush farovonligining yaxshilanishi va barqarorligiga erishish mumkin. Ko'p odamlar o'z tadbirkorliklarini boshlashni orzu qiladilar. Biroq, har qanday tadbirkorlik jiddiy tayyorgarlikni talab qiladi. Uni ro'yobga chiqarish uchun barcha xatarlarni (risklarni), mehnat qiyinchiliklarini va vaqt resurslarini baholash, shuningdek, barcha majburiy xarajatlarni hisoblash kerak. Bu esa moliyaviy savodxonlikni talab etadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda aholining keng qatlamini tadbirkorlikka jalb qilish va ularning daromad manbalarini kengaytirishga qaratilgan "Har bir oila – tadbirkor", "Yoshlar kelajagimiz" va boshqa ijtimoiy dasturlar doirasida jami 13 trln so'mdan ziyod imtiyozli kreditlar ajratilib, 600 mingdan ziyod oilalarni qamrab olishga erishildi. Mazkur dasturlar hududlarda aholining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi, uning turmush tarzini yaxshilash va ish bilan bandligini oshirish uchun turtki bo'lib xizmat qilmoqda.⁵

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4862-son Qarori. 13.10.2020.

Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish, kambag'allikni qisqartirish va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida mamlakatimizda quyidagi bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda:

– aholining tadbirkorlik bilan shug'ullanishga qiziqishi va manfaatdorligini oshirish;

– aholida tadbirkorlik sohasida zaruriy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'qitish tizimini joriy etish, mazkur jarayonga xalqaro tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlari va nodavlat ta'lim tashkilotlarini keng jalb qilish;

– tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mikroreditlash tizimini institutsional jihatdan takomillashtirish va rivojlantirish;

– aholi tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga oid ijtimoiy dasturlarni iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan uyg'un va muvofiqlashtirilgan holda ishlab chiqish;

– tadbirkorlik ko'nikmasi va tajribasiga ega bo'lgan aholini va boshqa kichik biznes vakillari salohiyatini ro'yobga chiqarish orqali ular faoliyatini kengaytirish va rivojlantirishga qaratilgan to'laqonli tizimni yaratish;

– tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yaxlit tizimni tashkil etish va yagona davlat tashkiloti tomonidan amalga oshirilishini va muvofiqlashtirib borilishini yo'lga qo'yish kabilar.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar va aholi daromadlari⁶

Yillar	Kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo'lganlar soni, ming kishi	Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi, foiz	Aholi daromadlari, mlrd so'm
2010	8643,9	74,3	62631,6
2011	8950,7	75,1	85933,5
2012	9239,7	75,6	104263
2013	9604	76,7	126268
2014	9950,8	77,6	146392,9
2015	10170,4	77,9	169344,3
2016	10397,5	78,2	197962,4
2017	10541,5	78	236893,1
2018	10128,8	76,3	300685,8
2019	10318,9	76,2	365598,3
2020	9865,7	74,5	414968,7
2021	10080,6	74,5	519181,4
2022	10131,1	73,9	633567,4

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2> va <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>

Jadval ma'lumotlarining ko'rsatishicha, O'zbekistonda kichik tadbikorlik subyektlarida band bo'lganlar soni 2010-yilda 8643,9 ming kishini tashkil etib, 2022-yilga kelib 10131,1 ming kishini tashkil etgan, ya'ni so'nggi 13 yilda kichik tadbikorlik subyektlarida band bo'lganlar soni 1487.2 ming kishiga yoki 17 foizga oshgan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi esa 2010-2022-yillar davomida ko'tarilish va tushish tendensiyasiga ega bo'lgan holda o'zgarib turgan va 2010-yilda bu ko'rsatkich 74,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda esa 73,9 foizni tashkil etmoqda. Aholi daromadlari esa 2010-2022-yillarda mos ravishda 62631,6 mlrd. so'm va 633567,4 mlrd. so'mni tashkil etgan, ya'ni 10 barobarga oshgan.

Xulosa qilib aytganda, Insonning ma'lum soha bo'yicha ilm va tushuncha olishida ta'lim eng muhim tizim hisoblanadi. Yoshlarning moliyaviy savodxonligini asta-sekin ta'lim davrida oshirib borish samarali natijadir.

Buning uchun har bir hududda hamda ish joylarida moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha ekspertlarni jalb qilgan holda treninglar tashkil etish zarur.

Mahalliy hokimyat, ish beruvchilar, mahalla faollari bu borada yanada mas'uliyatli bo'lishlari lozim, chunki har qanday moliyaviy yo'qotish bir oila uchun bu o'sha hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga sekin asta ta'sir qilib boradi.

Uy xo'jaliklari, oilalar va shaxslarga o'z byudjetlarini shakllantirish va rejalashtirishga oid bilim hamda ko'nikmalarni muntazam berib borishning universal usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, aholining turli ijtimoiy guruhlari uchun mo'ljallangan moliyaviy savodxonlik, uning tarkibiy qismlarini takomillashtirish bo'yicha turli axborot va ta'lim dasturlarini ishlab chiqilishi, hamda ularni muntazam tegishli aholi qatlamlari uchun yetkazib borish ham muhim choralardan hisoblanadi.

JAHON IQTISODIYOTINING RIVOJLANISHI VA MINTAQAVIY IQTISODIYOTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGI O'RTASIDAGI MUNOSABATLARI

Xayitova Feruza

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini
rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari"
Ilmiy – tadqiqot markazi tayanch doktoranti*

Bugungi kunga kelib glaballashuv jarayonlari nafaqat xalqaro iqtisodiyot tuzilishini o'zgartiribgina qolmay, balki har bir davlat ichidagi mintaqalarning rivojlanishiga ham katta ta'sir o'tkazmoqda. Bizga ma'lumki, bir davlat boshqa bir davlat bilan mahsulot ayirboshlashni yo'lga qo'ymasdan turib, iqtisodiy faoliyatini yuritishi juda qiyin. Mahsulot ishlab chiqarishning amalga oshishi va rivojlanishi xalqaro savdo munosabatlarini vujudga keltiradi. Mahsulot ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiy etib